

ALISHER NAVOIYNING “ NAZM UL-JAVOHIR ” ASARIDAGI RUBOIYLAR TALQINI

Shamsiddinova Hafizabonu

Farg‘ona davlat universiteti

filologiya fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “ Nazm ul-javohir ” asaridagi ruboiylarning mazmuni, axloqiy qarashlari va bayoni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: “Nazm ul-javohir”, ruboiylar, pandnoma, hikmatlar, mazmun, g‘oya.

Turkiy xalqlarning “shams ul-millat”i bo‘lgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o‘zbek adabiyoti, qolaversa, jahon adabiyoti xazinasini o‘zining hassos she‘riyati, buyuk va yetuk “Xamsa”si, boshqa fan sohalariga oid turli mavzudagi ilmiy merosi bilan boyitgan so‘z san’atkoridir. Uning ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotining yuksak cho‘qqisidir. Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy merosida ma’rifiy, axloqiy va tasavvufiy g‘oyalar yetakchi o‘rin tutadi. “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub”, “Lison ut-tayr” va boshqa asarlari ham diniy, ham dunyoviy bilimlarning manbai hisoblanadi. Shunday noyob asarlardan biri – “Nazm ul-javohir” bo‘lib, unda Navoiy pand-nasihati ruhida hikmatlarni ruboiy shaklida jamlagan.

“Nazm ul-javohir” asari pandnoma yo‘nalishida bo‘lib, Hazrat Ali ibn Abutolib hikmatlarining ruboiy shaklida qilingan she‘riy tarjimasidir. Asar 1485-yilda Sulton Husayn Boyqaroning “Risola”siga javob va minnatdorlik izhori tarzida yozilgan. Asar muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Alisher Navoiy dastavval Hazrat Alining arabcha hikmatini aslida keltirib, so‘ng har bir hikmatning umumiy yo‘nalishidan kelib chiqqan holda to‘rt misrasi ham qofiyalanuvchi ruboiylardan foydalanadi. Umumiy miqdori 268 ta bo‘lgan arabcha hikmatli so‘zlardan anglashiladigan fikrlar to‘rt misradan iborat she‘riy shaklda o‘zining ruboiylarini yozadi.

“Nazm ul-javohir”dagi ruboiylar mavzu jihatidan rang-barangdir. Unda insonning ma’naviy pokligi, adolat, muhabbat, sabr, ilm va donishmandlikning ahamiyati, dunyo va

oxirat munosabati, nafsni tiyish va axloqiy o‘zini o‘zi tarbiyalash kabi mavzular badiiy umumlashtirilgan. Masalan, 13-ruboiyga Hazrat Alining “Barakat ul- umri fi xusn il- amali” degan o‘gitlari asos qilib olingan:

Haq yo‘lida har kimga ibodat bo‘lg‘ay,

Yaxshi amal asbobi saodat bo‘lg‘ay,

Gar yaxshi amal kishiga odat bo‘lg‘ay,

Umri bu amal birla ziyodat bo‘lg‘ay.

Avvalo, hikmatga to‘xtalsak, “Umrning barakasi chiroyli amallardadir” degan fikr sharhlanadi. Bunda 1-misrada Haq yo‘lida har kim o‘z ibodatlarini qilishi, ezgu ishlar bilan hayotda yashashini ta’kidlamoqda. 2-misrada yaxshi amallar, ya’ni ezgu amallar, halollik, poklik, nafsini tiya olish saodatning asosi, belgisi ekanligini uqtirmoqda. 3-misrada agar inson ezgu ishlarni har kuni qilsa, vaqtlar o‘tib bu ishlar odat darajasiga o‘tadi. 4-misrada uch misrani yakunlovchi xulosa keltiradi, ya’ni inson amallari bilan umrini mazmunli qiladi, oxiratda ham bu yaxshi amallari insonning o‘ziga yordam berishini aytib, ruboiyni yakunlaydi.

Navoiy bu asarida chinakam insoniy fazilatlarni, ya’ni ahdga vafo qilish, shukr, oila tutish odobi, diyonat va omonatni saqlay bilish, ota-onaga hurmat, til ofati, ilmga intilmoq, himmat va adolat kabi ibratli fazilatlarni tarannum etdi. Jumladan ota-ona mavzusiga bag‘ishlangan 11-ruboiysi “Birr ul-volidayni salafun” hikmatiga asoslanadi.

Ista ato yo‘lida jon fido qilmoq,

Qulluq anoga ham ulcha imkon qilmoq,

Zuhri abad istasang farovon qilmoq,

Bil oni ato-anog‘a ehson qilmoq.

Bu to‘rtlikda ota-onani, ularning izzat-hurmatini baland tutmoq kerakligi to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Hikmatning o‘zi ham “Ota-onaga mehribonlik – merosdir” deya tarjima

qilinadi. Avvalo, ota va onaning hurmatini joyiga qo‘ymoq, ularga sidqidil bilan xizmatda bo‘lmoq eng yuksak, olijanob insoniy burchdir. Har bir yigit va qiz, har bir farzand bu burchni sharaf bilan ijro etmog‘i shart.

Shu kabi mavzudagi keyingi ruboiylarida oxirat va bu dunyo g‘amini o‘ylaydigan insonlarga qarata Hazrat Alining “ Hamm as-sa’idu oxiratu va hamm ash-shaqnyyu dunyohu” hikmatini 234- ruboiysida tushuntirib, ochiqlab beradi, ya’ni:

Uqbo g‘ami ul er ani dono bil,

Yegonni jahonning g‘amini dono bil,

Kim bo‘lsa said aning g‘amin iqbo bil,

Bulg‘ong‘a shaqi g‘amin bozayi dunyo bil.

Bunda misralarni alohida-alohida ko‘rib chiqsak, 1-misrada “uqbo” so‘zining ma’nosi “oxirat” deganidir, demak “uqbo g‘ami” – oxirat g‘amidir. Dono kishi oxirat g‘amini shu dunyoda qilishi lozimligini biladi. 2-misrada dono kishi dunyo tashvishining ham asl mohiyatini taniydi. Ya’ni dunyoviy g‘amlar vaqtinchalik, o‘tkinchi ekanini anglaydi va bu dunyoga bog‘lanib, o‘rganib qolmaydi. 3-misrada “said” so‘zi “baxtiyor, saodatli kishi” ma’nosida kelmoqda. Demak, kim haqiqatdan baxtli bo‘lmoqchi bo‘lsa, o‘z g‘amini, tashvishini oxirat bilan bog‘laydi, ya’ni saodatning o‘lchovi dunyo emas, oxirat ekanini tushunadi. 4-misrada “shaqiy” – baxtsiz, badbaxt degan ma’noda ishlatilmoqda. Kim badbaxt bo‘lsa, uning barcha g‘ami faqat dunyo bilan bog‘liq, chunki oxiratni o‘ylaganda bu dunyo tashvishlarini o‘ylab yurmasdi. Shu sababdan bunday insonlar oxiratni unitadi, dunyo tashvishlariga o‘ralashib qolaveradi.

“Nazm ul-javohir”ni o‘qigan kishi islom dini – eng avvalo, ma’rifat, go‘zal axloq, ezgu niyat va solih amal qilishga hidoyat etuvchi din ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qiladi. “Nazm ul-javohir” mavzu nuqtai nazaridan diniy asar hisoblansa-da, mohiyat e’tibori bilan axloqiy-didaktik asarlar sirasiga kiradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkin-ki, Navoiyning ushbu asari boshdan oyoq ta’lim-tarbiyaga doir. “Nazm ul-javohir”da Navoiy el-u yurt hayoti tajribasidan kelib

chiqqan xulosa va umumlashmalari orqali ezgulik, insoniylik, adolat, odob, axloq g'oyalarini keng targ'ib qiladi. Kishilarni ma'naviy yuksaklikka ko'tarishga harakat qiladi, moddiy va ma'naviy uyg'unlik qanday bo'lishi kerakligi to'g'risida yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Alisher Navoiyning "Nazm ul-javohir" asaridagi hikmatlarga yozgan sharhi garchi asrlar avval bitilgan bo'lsada, hozirgi kunimizdagi dolzarb masalalar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy A. Nazm ul-javohir. – Toshkent, 2024.
2. Rajabova M. Alisher Navoiyning she'riy durdonasi. Toshkent, Fan, 2008.
3. Sirojiddinov Sh, Yusupova D, Davlatov O. Navoiyshunoslik.- Tamaddun, Toshkent, 2019.